

## TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

*Tish kasalliklari***Ro'ziyev Farxod Shuxrat O'g'li**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada inson hayotida eng kerakli bo'lgan tana a'zosi tish hamda uning kasalliklari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Stomatologiya, tish, og'iz bo'shlig'i, ovqat, sut tishlar, karies, kasallik, davolash.*

Stomatologiya tibbiyot fanining bir qismi bo'lib, «stoma» — bo'shliq, og'iz, «logos» — o'rganish demakdir. Bugungi stomatologiya fani og'iz bo'shlig'i, tishlar, yuz-jag' suyaklari va sistemasi, unga yaqin tuigan barcha organlami o'rganadi, ularda yuz beruvchi kasalliklarning oldini oladi, davolaydi ham da rehabilitatsiya qiladi.

Tishlar inson hayoti mobaynida muhim rol o'ynaydi. Ular ovqatni uzib olish, mexanik maydalash, so'zlarni to'g'ri talaffuz etishda ham ishtirok etadi. Inson hayotida tishlar ikki marotaba chiqadi. Tish murtaklari homilaning 6–7 haftaligidan boshlab rivojlanadi. Avval sut tishlar chiqib, so'ng doimiy tishlar bilan almashadi. Tishlar chiqish mexanizmi judayam murakkab va to'liqligicna o'rganilmagan. Sut tishlar 20 ta bo'lib, har bir jag'da 10 tadan joylashgan.

Tishlar taraqqiyoti — bu murakkab jarayon hisoblanib, homila rivojlanish davrining eng awalgi pallasidan boshlanadi va inson umrning 18—20 yoshiga qadar, ayrim hollarda, hattoki 25 yoshlik davrigacha davom etishi mumkin. Mazkur murakkab jarayonni shartli ravishda bir necha davrlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

I davr — bolaning tug'ilgan vaqtdan boshlab 6—7 oylik davriga qadar. Bu davrda sut tishlar hali yorib chiqmagan bo'lib, ular jag' suyaklari qarida murtak shaklida joylashgan bo'ladi. Mazkur murtaklar embrion shakllanishining 4 0 -4 5 - kunidayoq hosil bo'la boshlaydi.

II davr — 6—7 oylik davridan 6—7 yoshga to'lguniga qadar davom etadi. Bu davrda 20 ta sut tishlari m a'lum tartib bilan yorib chiqadi. Ushbu davrni shartli ravishda 3 ta pallaga bo'lib o'rganish mumkin: birinchi palla — sut tishlarining yorib chiqishi bilan kechadi (6—7 oylik vaqtdan 2,5—3 yoshlik davrigacha). 2—3 yoshlik davriga kelib barcha 20 ta sut tishlari chiqib bo'ladi va shunga yarasha tish yoylarining shakli ham to'liq anatomik (yarim doira) shaklga ega bo'ladi; ikkinchi palla bolaning 3—4 yoshlik davriga to'g'ri kelib, bu davrda hech qanday tashlar yorib chiqmaydi; tish yoylarining shakli ham deyarli o'zgarishsiz qoladi. Uchinchi pallasida esa, yuqorigi va pastki frontal (oldingi) tishlararo yoriqchalar hosil bo'la boshlaydi, oxirgi jag' tishlarni (ikkinchi sut molyarlari) distal (orqa) tarafidagi milk maydonchasining yuzasi uzaya boradi. Bunday o'zgarishlar doimiy frontal (oldingi — kurak) tishlarining va birinchi molyarlarning tez orada yorib chiqishining belgisi hisoblanadi.

III davr — bolaning 6 yoshlik davrida boshlib 12—13 yoshlik davrigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davr ham shartli ravishda 2 bosqichga bo'lib o'rganiladi: birinchi bosqichda doimiy kurak (frontal) va birinchi molyarlar yorib chiqadi; ikkinchi bosqichda esa, awal birinchi, keyin ikkinchi premolyarlar, so'ngra qoziq tishlar yorib chiqadi.

IV davr — bu vaqtga (12—13 yoshlik davri) kelib uchinchi molyarlardan tashqari barcha doimiy tishlar yorib chiqqan bo'ladi va ulaming soni 28 taga etadi. 17—25 yoshlik davriga kelib uchinchi doimiy molyarlar (aql tishlari) yorib chiqishi mumkin.

Tishlar ayni vaqtda kasallanadi ham Tug'ma kasalliklarga tish shaklining noto'g'ri shakllanishi, emal rangining o'zgarishi, struktura (mineralizatsiya darajasi) sining buzilishi, son jihatdan ortiqcha tishlar, ularning kamligi (adentiya) va bir qancha kam uchraydigan kasalliklar kiradi.

«Tish og'rig'i» -bu bolalar va kattalarni, erkaklarni va ayollarni cho'chitadigan so'zdir. Tishlardagi kuchli og'riqning asosiy sabablaridan biri karies hisoblanadi. Bu kasallik turli darajalarda xavfli bo'lishi mumkin, ammo u har holda davolanishi kerak.

Karies — og'iz bo'shlig'ining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biridir. Karies paydo bo'lganda avvalo tish emali shikastlanadi, agar davolanmasa, u dentin (tishning qattiq to'qimalari) ni shikastlaydi. Karies lotin tilidan olinganda «chirish» degan ma'noni anglatadi, xalq orasida karies «tish chirishi», «tish qurtlashi» degan atamalar bilan nomlanadi, ikkinchi atamani ishlatish tibbiyot nuqati nazaridan biroz noto'g'ri.

Kariesning dastlabki belgisi — tish emalidagi qora dog'lar paydo bo'lishi. Agar bu dog'larga e'tibor berilmasa, karies diametri oshishi va patologiya tish to'qimalariga chuqurroq tarqalib, «teshik» paydo qilishi mumkin. Karies tish emalini va dentinni shikastlab, teshib o'tsa, u pulpa (tish yumshoq to'qimalari) ga yetib boradi va juda kuchli og'riqqa sabab bo'lishi mumkin. Pulpaning yallig'lanishi — pulpit deya nom olgan. Tishning zararlanishi darajasi qarab kariesni dog'lar (tish sirtida rang o'zgarishi), yuzaki karies (sirt zararlanish), o'rta karies (dentinning yuqori qismi zararlangan) va chuqur karies (dentin deyarli butunlay zararlanib, pulpagacha yetib borgan) ga ajratishadi. Bundan tashqari, emal, dentin va ildiz sementlarining karieslari alohida tasniflanadi — ildiz sementi kariesida kasallik milk ostida paydo bo'ladi. Yuzaga kelishi joyiga qarab fissur (tish chuqurchasida sodir bo'ladi), approssimal (tishlar orasida) va bo'yin oldi (milk yaqinida yoki undan pastda) kariesi tasniflanadi. Bundan tashqari, oldingi tishlarning karieslari ham mavjud bo'lib, ular ayniqsa tabassum estetikasiga salbiy ta'sir qiladi. Odatda oldingi tishlar zararlanganda, hatto stomatologlardan qo'rqanlar ham ularga darhol murojaat qilishadi.

Stomatologga tashrifidan ozod bo'lish uchun og'iz bo'shlig'ini o'zingiz mustaqil tekshirishingiz kerak. Agar kariesni dastlabki bosqichda aniqlasangiz, uni tish shifokori yordamisiz ham to'xtata olasiz. Sizda tish kariesi bor-yo'qligini aniqlash juda oson. Tish sirti rangi o'zgarishi (dog' qoramtir yoki oqimtir bo'lishi mumkin) yoki uning tuzilishi, masalan g'adir-budurligi — kasallik paydo bo'lishidan dalolat beradigan alomatlaridir. Shuningdek,

ovqatlanganda tish og'rig'i, ayniqsa shirin, issiq va sovuq ta'sirida yuz beradigan kuchli og'riq ham kariesdan dalolat beradi. O'g'izdan nohush hid kelishi ham kasallik aromati bo'lishi mumkin. Agar kasallik o'rta bosqichga o'tib ketgan bo'lsa, tishda chuqurcha paydo bo'lgan bo'ladi — odatda u til bilan osonlikcha seziladi. Biroq, «teshik» faqatgina karies tufayli sodir bo'lmaydi, aniq tashxisni faqat tish shifokori qo'yadi.

Kariesning (tish chirishining) asosiy sababi — kislotalar ishlab chiqaradigan bakteriyalardir, ular tish to'qimasidan ftor va kaltsiyni yuvilishiga sababchi bo'ladi. Mikroorganizmlar og'iz bo'shlig'ini tozalashdan 1-2 soat o'tgach, ko'payishni va tishni shikastlashni boshlaydi va tishda karash paydo qiladi. So'lak ajralishining yetishmovchiligi ham karies rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Aslida, so'lakning mineral moddalari bakteriyalar tomonidan ishlab chiqariladigan kislotalarni qisman bartaraf qilishga qodir. So'lak juda kam hosil bo'lganda, kislotalar tishlarni tezda yemirishni boshlaydi. Bundan tashqari, so'lak qisman karashlarni yuvib turadi. Kserostomiya (og'izda «quruqlik») turli kasalliklar, masalan qandli diabet, gipertoniya, burundan nafas olishning buzilishi natijasida rivojlanishi mumkin. Bundan tashqari, tishning yemirilishga tez-tez shirinliklarni iste'mol qilish ham sabab bo'lishi mumkin va bu qancha glyukoza iste'mol qilinganiga emas, balki qancha vaqt davomida tishlar bilan aloqa qilganligiga bog'liq, ya'ni tishlarga «yopishib» qolishi davomiyligi. Noto'g'ri ovqatlanish nafaqat tishga, balki umuman og'iz bo'shlig'ining salomatligiga salbiy ta'sir qiladi.

Agar karies aniqlangan bo'lsa, siz ovqatlanishga o'zgartirishlar kiritishingiz, og'iz gigienasiga ko'proq e'tibor berishingiz, shuningdek tarkibida kaltsiy va ftor yuqori bo'lgan tish pastalariga afzallik berishingiz kerak. Tish shifokori huzuriga borish majburiydir. Faqat kariesni o'z vaqtida davolashgina tishlarni saqlab qolishga yordam beradi. Agar karies dog' bosqichida bo'lsa, tishlarni yetarli darajada ftor va kaltsiy bilan to'yintirish uni bartaraf qilish uchun yetarli hisoblanadi. Agar kasallik sirtki, o'rta yoki chuqur bosqichda bo'lsa, bormashina ishlatmay, ehtimol boshqa chora bo'lmaydi. Kariesni davolash uchun tishning zararlangan qismini arralab tashlash va uning tabiiy shaklini plomba materiallari yordamida tiklash kerak. Chuqur karieslarni davolashda, odatda, stomatologga ikki marta tashrif buyurish kerak bo'ladi — birinchi marta vaqtinchalik plomba, so'ngra esa doimiy plomba qo'yiladi. Agar karies plomba ostida paydo bo'lsa, uni aniqlash uchun rentgenografiya qo'llaniladi.

Kariyeslarni davolashning ikkita asosiy usuli mavjud: noinvaziv («arralashsiz») va invaziv (ta'sirlangan to'qimalarni arralab tashlash bilan). Usulni tanlash kasallikning bosqichiga bog'liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Borovskiy Ye.V. Terapevtik stomatologiya. -M.:Meditsina,1988.-559b.

2. Bajanov N.N. Stomatologiya – OTM uchun qo'llanma – Moskva, GEOTAR-MED, 2002-316 bet.- 7,63Mb.

3. Bazikyan E.A. va hammual. Propedevtik stomatologiya: qo'llanma – M.: GEOTARMedia, 2010. -768 bet.: il.

4. Barer G.M., Zoryan Ye.V., Agapov V.S., Afanasev V.V. va hammual. Stomatologiyada ratsional farmakoterapiya: Praktik shifikorlar uchun qo'llanma; — M.: Litterra, 2006. — 568 bet.